

AKSIYA BO‘YICHA OFERTA

«Ucell’da yil yakunlari + Ucell bilan mening hikoyam»

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Oferta «Ucell’da yil yakunlari + Ucell bilan mening hikoyam» rag‘batlantiruvchi aksiyasini (keyingi o‘rinlarda Aksiya deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini tartibga soladi, ishtirok etish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni olish tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq o‘tkaziladi.

1.3. Aksiya lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat turi hisoblanmaydi.

1.4. Aksiya tashkilotchisi «COSCOM» MChJ (Ucell savdo belgisi), STIR 201788904, yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.

1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.6. Aksiyani o‘tkazish muddati:

Aksiya 2026-yil 18-avgustdan 2026-yil 17-noyabrgacha, shu jumladan, o‘tkaziladi va quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1-bosqich: 2026-yil 18-avgustdan 2026-yil 17-sentabrgacha, shu jumladan. Yakunlarni sarhisob qilish va g‘olibni aniqlash 2026-yil 27-sentabrgacha amalga oshiriladi.
- 2-bosqich: 2026-yil 18-sentabrdan 2026-yil 17-oktabrgacha, shu jumladan. Yakunlarni sarhisob qilish va g‘olibni aniqlash 2026-yil 27-oktabrgacha amalga oshiriladi.
- 3-bosqich: 2026-yil 18-oktabrdan 2026-yil 17-noyabrgacha, shu jumladan. Yakunlarni sarhisob qilish va g‘olibni aniqlash 2026-yil 27-noyabrgacha amalga oshiriladi.

1.7. Aksiya o'tkazish kanali:

Ucell mobil ilovasining 2.19 versiyasi.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyada Ucell abonentlari bo'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin, mazkur Ofertaning 2.2-bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.

2.2. Aksiyada quyidagilar ishtirok eta olmaydi:

- Tashkilotchi xodimlari;
- ishtirok etish shartlariga muvofiq kelmaydigan shaxslar.

2.3. Quyidagi shartlarni bajargan Ucell abonentlari Aksiya ishtirokchisi hisoblanadi:

- Ucell mobil ilovasida shaxsiy yil yakunlarini ko'rgan yoki «Ucell bilan mening hikoyam» bo'limiga o'tgan;
- ilova ichidagi shakl orqali o'z hikoyasini yuborgan;
- mazkur Oferta shartlariga roziligini tasdiqlagan.

3. Ishtirok etish tartibi

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- Ucell mobil ilovasining 2.19 versiyasini ochish;
- mazkur Oferta shartlarini qabul qilish;
- «Mening yil yakunlarim» bo'limiga yoki bevosita «Ucell bilan mening hikoyam» bo'limiga o'tish;

- shaxsiy yil yakunlarini ko‘rish, agar ular mavjud bo‘lsa;
- «Mening hikoyam» shaklini to‘ldirish;
- hajmi 300 dan 1000 tagacha belgidan iborat hikoya matnini yuborish;
- tegishli katakchaga belgi qo‘yish orqali Oferta shartlariga roziligini tasdiqlash.

3.2. Bitta abonent raqami (MSISDN) Aksiya o‘tkaziladigan butun davr mobaynida faqat bitta hikoya yuborishi mumkin.

3.3. Hikoya faqat Ishtirokchi uni yuborgan davrga tegishli Aksiya bosqichida ishtirok etadi.

3.4. Aksiya bosqichlaridan birida g‘olib deb topilmagan hikoya keyingi bosqichlarga o‘tkazilmaydi.

3.5. Quyidagilarni o‘z ichiga olgan hikoyalar Aksiyada ishtirok etishga qo‘yilmaydi:

- odobsiz so‘z va iboralar;
- spam;
- haqoratlar;
- reklama xususiyatiga ega materiallar;
- Ucell bilan bog‘liq bo‘lmagan matnlar;
- haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar;
- sun’iy intellekt tizimlari, shu jumladan generativ modellar yordamida to‘liq yoki qisman yaratilgan matnlar.

3.6. Tashkilotchi mazkur Oferta shartlariga muvofiq kelmaydigan hikoyani rad etish huquqiga ega.

4. Hikoyalarni moderatsiya qilish

4.1. Yuborilgan barcha hikoyalar avtomatik va qoʻlda moderatsiyadan oʻtkaziladi.

4.2. Avtomatik moderatsiya bosqichida quyidagilar saralanadi:

- spam;
- boʻsh xabarlar.

4.3. Qoʻlda moderatsiya bosqichida Tashkilotchi quyidagilarni baholaydi:

- matn sifati;
- qonunchilik talablari va Oferta shartlari buzilmaganligi.

5. Gʻoliblarni aniqlash tartibi

5.1. Moderatsiyadan oʻtgan barcha hikoyalar Tashkilotchining tanlov komissiyasi koʻrib chiqishi uchun taqdim etiladi.

5.2. Tanlov komissiyasi tarkibiga «COSCOM» MChJ (Ucell) vakillari, shu jumladan:

- marketing boʻlinmasi xodimlari;
- PR boʻlinmasi xodimlari kiradi.

5.3. Tanlov komissiyasi ishtirok etishga ruxsat berilgan barcha hikoyalarni koʻrib chiqadi va quyidagi mezonlar asosida har bir bosqich gʻolibini aniqlaydi:

- hikoyaning oʻziga xosligi;

- hikoyaning hissiy ta'siri;
- hikoyaning Ucell bilan bog'liqligi.

5.4. Har bir bosqich yakunlari bo'yicha tanlov komissiyasi Aksiyaning 1 (bir) nafar g'olibini aniqlaydi.

5.5. Tanlov komissiyasining qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

5.6. Tashkilotchi Aksiya shartlariga rioya etilganligini tasdiqlash uchun g'olibdan qo'shimcha ma'lumot so'rash huquqiga ega.

6. Sovrinlar

6.1. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar ko'zda tutilgan:

- 1-bosqich - iPhone 17 Pro, 1 dona;
- 2-bosqich - iPhone 17 Pro, 1 dona;
- 3-bosqich - iPhone 17 Pro, 1 dona.

Sovrinlarning umumiy soni: 3 (uch) dona.

6.2. Tashkilotchi sovrinni qiymati va texnik xususiyatlari bo'yicha o'xshash boshqa sovrin bilan almashtirish huquqiga ega.

6.3. Reklama materiallarida foydalaniladigan sovrinlarning tasvirlari qurilmalarning haqiqiy tashqi ko'rinishidan farq qilishi mumkin.

7. Natijalarni e'lon qilish

7.1. Aksiya natijalari Ucell rasmiy veb-saytida va Ucell'ning rasmiy ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e'lon qilinadi.

7.2. Natijalarni e'lon qilishda Tashkilotchi Ishtirokchining ismi, familiyasining birinchi harfi, niqoblangan abonent raqami yoki boshqa shaxssizlantirilgan ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

7.3. Tashkilotchi Ishtirokchilarning hikoyalarini Aksiya o'tkazilayotgan davrda va Aksiya yakunlangandan so'ng to'liq yoki qisman Ucell rasmiy veb-saytida, Ucell'ning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy akkauntlarida, messenjerlarda hamda Tashkilotchining boshqa axborot resurslarida e'lon qilish huquqiga ega.

7.4. Eng yaxshi hikoyalar Tashkilotchi tomonidan hudud va tarqatish kanallari bo'yicha cheklovlersiz marketing, reklama va axborot materiallarida foydalanilishi mumkin.

8. Sovrinlarni olish tartibi

8.1. Sovrinni olish uchun g'olib quyidagilarni taqdim etishi shart:

- pasport yoki ID-karta;
- JShShIR;
- Tashkilotchining so'roviga ko'ra boshqa hujjatlar.

8.2. G'olibning ma'lumotlari Ucell abonent raqami egasining ma'lumotlariga mos kelishi lozim.

8.3. Agar g'olib 18 yoshga to'lmagan bo'lsa, sovrinni uning qonuniy vakili, ya'ni ota-onasi yoki vasiysi oladi. Qonuniy vakil o'z vakolatlarini tasdiqlashi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart.

8.4. Sovrinlar tegishli bosqich natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kuni ichida topshiriladi.

8.5. G'olib sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.

8.6. Tashkilotchi g'olib aniqlangan kundan boshlab 14 kalendar kuni davomida g'olib bilan bog'lanish uchun 5 martagacha urinishni amalga oshiradi.

8.7. Zarur hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortilgan, zarur hujjatlarni imzolash rad etilgan yoki g'olib bilan bog'lanish imkoni bo'lmagan taqdirda, Tashkilotchi sovrinni topshirishni rad etish va yangi g'olibni aniqlash huquqiga ega.

8.8. Talab qilib olinmagan sovrin Tashkilotchi tasarrufida qoladi.

9. Shaxsga doir ma'lumotlar

9.1. Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish orqali quyidagilarga o'z roziligini bildiradi:

- shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga;
- yuborilgan hikoyadan Ucell'ning marketing, reklama va axborot materiallarida foydalanishga;
- hikoya matnini to'liq yoki qisman e'lon qilishga;
- Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra Ishtirokchining ismi, familiyasining birinchi harfi, niqoblangan abonent raqami yoki boshqa shaxssizlantirilgan ma'lumotlarni e'lon qilishga;
- sovrinlarni topshirish vaqtida foto va videotasvirga olishga.

9.2. Tashkilotchi yuborilgan hikoyalardan Ishtirokchi bilan qo'shimcha kelishuvsiz va unga biror-bir haq to'lamasdan marketing, reklama, axborot va boshqa kommunikatsiya materiallarida to'liq yoki qisman foydalanish huquqiga ega.

Mazkur huquq Tashkilotchiga tegishli materiallarga nisbatan mutlaq huquqlarning amal qilish muddati davomida beriladi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan barcha foydalanish usullariga tatbiq etiladi.

9.3. Hikoyalarni e'lon qilishda Tashkilotchi Ishtirokchining ismi, familiyasining birinchi harfi, niqoblangan abonent raqami yoki boshqa shaxssizlantirilgan ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

9.4. Ishtirokchi yuborilgan hikoya shaxsan o'zi tomonidan yaratilganligini, uning mazmunini to'liq yoki qisman yaratishda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanilmaganligini, hikoya uning o'z ijodiy mehnati natijasi ekanligini, shuningdek Tashkilotchi tomonidan undan foydalanilishi uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligini kafolatlaydi.

10. Boshqa shartlar

10.1. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining mazkur Oferta shartlariga to'liq roziligini anglatadi.

10.2. Tashkilotchi Ucell rasmiy veb-saytida Ofertaning yangilangan tahririni e'lon qilish orqali Aksiya shartlarini o'zgartirish huquqiga ega.

10.3. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- texnik nosozliklar;
- Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Aksiyada ishtirok etish imkoniyati mavjud bo'lmasligi;
- Ishtirokchi tomonidan hikoyani yuborishda yo'l qo'yilgan xatolar;
- g'olib bilan bog'lanishning imkoni bo'lmasligi;
- Aksiyaning o'tkazilishiga ta'sir ko'rsatgan uchinchi shaxslarning harakatlari.

10.4. Tashkilotchi firibgarlik harakatlari aniqlangan, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgan yoki mazkur Oferta shartlari buzilgan taqdirda Ishtirokchining Aksiyadagi ishtirokini bekor qilish huquqiga ega.

10.5. Tashkilotchi firibgarlik va suiiste'molliklarning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqiga ega.

10.6. Tashkilotchi yengib bo'lmaydigan kuch holatlari, ya'ni fors-major holatlari oqibatlari uchun javobgar emas.

10.7. Barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

10.8. Ishtirokchi yuborilgan hikoyani yuborilgan paytdan boshlab 24 soat davomida, biroq Aksiyaning tegishli bosqichi tugaydigan sana va vaqtdan kechiktirmasdan tahrirlash huquqiga ega. Tahrirlash imkoniyati 24 soat o'tgach yoki Aksiyaning tegishli bosqichi yakunlangan paytda, qaysi holat oldin yuz bersa, o'sha vaqtda tugaydi.

11. Shaxsiy yil yakunlari

11.1. Aksiya doirasida ayrim Ishtirokchilarga Ucell aloqa xizmatlaridan foydalanish bo'yicha statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan «Mening yil yakunlarim» shaxsiy bo'limidan foydalanish imkoniyati taqdim etilishi mumkin.

11.2. Shaxsiy yil yakunlari Tashkilotchining axborot tizimlaridagi ma'lumotlar asosida Aksiyaning tegishli bosqichiga mos hisob-kitob davri uchun shakllantiriladi.

Shaxsiy yil yakunlarini shakllantirish uchun quyidagi hisob-kitob davri qo'llaniladi:

- 2025-yil 16-avgustdan 2026-yil 16-avgustgacha.

Shaxsiy yil yakunlari yil yakunlari shakllantirilayotgan paytda abonent raqamining xizmat ko'rsatish muddati kamida 3 oyni tashkil etadigan abonentlar uchun shakllantiriladi.

Agar abonent raqamining xizmat ko'rsatish muddati 3 oydan kam bo'lsa, bunday abonent uchun shaxsiy yil yakunlari shakllantirilmaydi.

Agar «Ucell bilan mening hikoyam» aksiyasining bosqichlaridan biri boshlanishiga qadar abonent belgilangan ishtirok etish mezonlariga mos kelsa, unga o'zining shaxsiy yil yakunlari bilan tanishish imkoniyati taqdim etiladi.

11.3. Shaxsiy yil yakunlari faqat axborot xususiyatiga ega bo'lib, moliyaviy, yuridik yoki boshqa rasmiy hisobot hisoblanmaydi.

11.4. Shaxsiy yil yakunlaridan foydalanish imkoniyati faqat Tashkilotchi tomonidan belgilangan ishtirok etish mezonlariga mos keladigan abonentlarga taqdim etiladi.

11.5. Tashkilotchi «Ucell bilan yilingiz» bo'limidan foydalanish imkoniyati taqdim etiladigan abonentlar tanlanmasini shakllantirish mezonlarini mustaqil ravishda belgilaydi.

11.6. Shaxsiy yil yakunlarini aks ettirish maqsadida Tashkilotchi foydalanilgan internet-trafik hajmi, ovozli aloqa xizmatlari, SMS, rouming, abonent raqamining xizmat ko'rsatish muddati hamda Tashkilotchining axborot tizimlarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

11.7. Shaxsiy yil yakunlari tegishli tanlanma tayyorlangan sanadagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi va shakllantirilgandan so'ng qayta hisoblanmasligi yoki yangilanmasligi mumkin.

11.8. Aksiya o'tkaziladigan davr mobaynida Tashkilotchi abonentlarning qo'shimcha tanlanmalarini shakllantirish va belgilangan mezonlarga mos keladigan yangi Ishtirokchilarga «Ucell bilan yilingiz» bo'limidan foydalanish imkoniyatini taqdim etish huquqiga ega.

11.9. «Ucell bilan yilingiz» bo‘limidan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi abonentning «Ucell bilan mening hikoyam» aksiyasida ishtirok etish huquqini cheklamaydi, agar Aksiya shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

11.10. Tashkilotchi har bir abonent uchun barcha statistik ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lishini kafolatlamaydi. Aks ettiriladigan ma’lumotlar tarkibi, faktlar to‘plami va mavjud axborot hajmi turli Ishtirokchilar uchun farq qilishi mumkin.